



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 9-16 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQADA TADBIRKORLIK SALOHIYATI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI



Madaminov Damir Abduraxmanovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada mintaqada tadbirkorlik salohiyati rivojlanishi sohaning YAHMdagi, tarmoq va sohalardagi hamda ish bilan bandlikdagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida Qoraqalpog'istonda tadbirkorlik sohasining joriy holati aniqlangan. Mazkur ma'lumotlar asosida mintaqada tadbirkorlik salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqada; tadbirkorlik salohiyati; barqaror rivojlanish; korrelyatsiya; regressiya.

Аннотация. В статье анализируется развитие предпринимательского потенциала региона на основе показателей валового регионального продукта (ВРП) сектора, отраслей и занятости. По результатам исследования определено текущее состояние предпринимательского сектора в Каракалпакстане. На основе этих данных разработаны предложения по повышению предпринимательского потенциала региона.

Ключевые слова: регион; предпринимательский потенциал; устойчивое развитие; корреляция; регрессия.

Abstract. This article analyzes the development of the region's entrepreneurial potential based on the gross regional product (GRP) indicators for the sector, industries, and employment. The study's findings assess the current state of the entrepreneurial sector in Karakalpakstan. Based on these data, proposals for enhancing the region's entrepreneurial potential have been developed.

Key words: region; entrepreneurial potential; sustainable development; correlation; regression.

Kirish

Qoraqalpog'iston Respublikasining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, uning iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlash uchun tadbirkorlik salohiyatining joriy holatini tadqiq qilamiz. Bunda, mintaqaning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi tadbirkorlikning mavjud holatini baholaymiz. Buning uchun kichik biznes va tadbirkorlikning YAHMdagi, sanoatdagi, qurilishdagi, ish bilan bandlikdagi ulushi kabi ko'rsatkichlarini tahlil qilamiz. Shu o'rinda, Qoraqalpog'iston Respublikasi va uning hududlaridagi tegishli ko'rsatkichlarning yetarli emasligi bois, O'zbekiston Respublikasi mintaqalaridagi mavjud ko'rsatkichlarni tadqiq etdik.

Jumladan, 2010-2024 yillar oralig'ida tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi va salohiyati ustuvor iqtisodiy ko'rsatkich sifatida tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar bo'yicha, umumiy tendensiya tadbirkorlik faoliyatining

barqaror o'sishini ko'rsatmoqda. Shuningdek, 2010-2024 yillar tadbirkorlik salohiyatining YAHMdagi ulushi bo'yicha salohiyati o'rtacha qiymati 0,701 ga teng bo'lgan.

Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik salohiyatining YAHMdagi ulushi 2010 yilda 0,504 ni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda yilma-yil o'zgarib, 2024 yilda 0,772 gacha yetgan. Tadqiqot davri davomida mintaqadagi o'rtacha ko'rsatkich 0,548 ga teng bo'lib, O'zbekiston bo'yicha o'rtachadan past hisoblanadi. Bu esa, mintaqada tadbirkorlik salohiyatini yanada oshirish, undan samarali foydalanishni talab qiladi.

Shuningdek, mintaqaning tadbirkorlik salohiyatini yillar kesimidagi tahlilini o'rganganimizda o'ziga xos tendensiyani ifodalaganligini aniqladik. Jumladan, 2011 va 2016 yillarda eng past qiymatlar qayd etilgan hamda mos ravishda 0,364 va 0,391 ga teng bo'lgan. Shu bilan birga, 2019 yildan keyingi davrlarda o'sish tendensiyasi kuzatilib, 0,575 dan 0,772 gacha ijobiy o'zgarish yuz bergan.

Yuqoridagilar asosida xulosa qilsak, Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi ko'rsatkichlari mutazam o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Biroq mintaqaning YAHMdagi ulushi bo'yicha tadbirkorlik salohiyati mamlakat o'rtachasiga nisbatan past bo'lib, bu, asosan, infrastruktura, mahalliy biznes muhiti, investitsiyalar va kadrlar salohiyati bilan bog'liq. Respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat dasturlari va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash choralari uzluksiz ravishda amalga oshirilishini talab etadi. Buning uchun esa, mintaqaning tadbirkorlik salohiyatini ishlab chiqarish bilan bog'liq sohalarini bo'yicha barqarorligini ham tahlil qilishni talab etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mintaqaviy tadbirkorlik salohiyatini o'rganish iqtisodiy fanlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik va mintaqaviy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik turli nazariy va empirik yondashuvlar orqali tadqiq etilgan.

Klassik iqtisodchilardan Richard Cantillon [2] tadbirkorlikni noaniqlik sharoitida faoliyat yuritish sifatida izohlagan. Keyinchalik Joseph Schumpeter [2] tadbirkorlikni innovatsiya va "yangi kombinatsiyalar" yaratish bilan bog'lagan.

Zamonaviy tadqiqotlar tadbirkorlikni mintaqaviy iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida ko'radi. Masalan, Roger R. Stough [7] tadbirkorlik yangi ish o'rinlari yaratish va hududiy iqtisodiy o'sishga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tadqiqotlarda hududiy daraja iqtisodiy tahlilda muhim bo'lib borayotgani qayd etiladi.

Michael Fritsch [4] tadbirkorlik rivojlanishi hududiy sharoitlar, infratuzilma va institutsional muhitga bog'liqligini ko'rsatadi.

Mintaqaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda klaster yondashuvi muhim hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda klasterlar korxonalar, davlat va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishi ta'kidlanadi.

Shu bilan birga, innovatsion tizimlar va bilimlar iqtisodiyoti tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiruvchi asosiy omillar sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda tadbirkorlik ekotizimi (entrepreneurial ecosystem) konsepsiyasi keng tarqaldi. Daniel Isenberg [5] tomonidan ishlab chiqilgan ushbu modelga ko'ra, tadbirkorlik rivoji quyidagi omillarga bog'liq:

- davlat siyosati;
- moliyaviy resurslar;
- inson kapitali;
- bozor imkoniyatlari.

Yifan Wei [6] tadqiqotiga ko'ra, mintaqaviy hukumatlar tadbirkorlik rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, infratuzilma, ta'lim va davlat xizmatlari tadbirkorlik o'sishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan akademik Q.X.Abduraxmonovning yondashuvida [8] tadbirkorlik milliy iqtisodiyot rivojlanishining drayveri sifatida ta'rif beriladi. A.R. Raximovning fikricha esa [9], davlat siyosati tadbirkorlik muhitini shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik mintaqaviy iqtisodiy o'sishning muhim elementi, hududiy omillar (infratuzilma, madaniyat, siyosat) hal qiluvchi ahamiyatga ega, klaster va ekotizim yondashuvi eng samarali model hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy va statistik tahlil, ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot ma'lumotlari sifatida ilmiy manbalar, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Dastlab O'zbekiston Respublikasi mintaqalaridagi sanoat tadbirkorligi salohiyatini, uning rivojlanish tendensiyalarini hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rnini baholaymiz. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat tadbirkorligi salohiyatining 2010-2024 yillardagi o'rtacha ko'rsatkichi 0,379 ga teng bo'lib, mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan (0,525) past bo'lgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoatda tadbirkorlik salohiyati 2010 yilda 0,559 ni tashkil etgan. Keyingi yillarda qiymatlar notekis o'zgarib borgan. Ayrim yillarda ushbu ko'rsatkich juda past qiymatlarga ega bo'lgan (2016-2018 yillarda mos ravishda 0,116, 0,015 va 0,062).

Shunday bo'lsada, oxirgi yillarda ijobiy darajada o'zgarib, 2024 yilda sanoat tadbirkorligi salohiyati 0,515 ga yetgan. Ya'ni, 2019-2024 yillarda tadbirkorlik salohiyatining ijobiy o'zgarishi aniqlanib, 0,232 dan 0,515 gacha barqaror rivojlanish yuz bergan. Bu jarayon tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat dasturlarining kengayib borganligi hamda mintaqada sanoat yo'nalishidagi investitsiyalar oqimining oshganligi bilan bog'liq.

Demak, Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat tadbirkorligi salohiyatini barqaror rivojlantirish uchun investitsiyalar ko'lamini hamda mintaqa xususiyatiga mos tabiiy resurslarni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini kengaytirishimiz zarur. Shuningdek, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda kadrlar salohiyatini oshirish kerak.

Yuqoridagi chora-tadbirlar bevosita qurilish tadbirkorligi salohiyati o'sishini ta'minlaydi. Shu bois mintaqaning tegishli tadbirkorlik salohiyati rivojlanishini ham tahlil qilamiz. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish sohasi tadbirkorlik salohiyati 2010-2024 yillarda notekis o'zgarib borgan. Jumladan, 2010-2015 yillarda qurilish tadbirkorligi salohiyati 0,319-0,474 oralig'idagi qiymatlarga ega bo'lgan. Mazkur

davrning o'ziga xos xususiyati va o'zgarish omili sifatida mahalliy loyihalar hamda davlat investitsiyalarini ko'rsatib o'tamiz. Shu bilan birga, 2016-2018 yillar davomida 0,406-0,562 oralig'ida o'sib, barqarorlikka erishgan. Ushbu davrning o'ziga xos jihatlari mintaqa tadbirkorlik salohiyatida infratuzilma obyektlari hamda qurilish materiallari bazasi rivojlangan. Bu esa, tadbirkorlik salohiyati rivojlanishining asosiy omili sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, mazkur davrning o'ziga xos holati mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilingan. 2019-2024 yillarda esa, salohiyat 0,441-0,829 oralig'ida tebranib, 2022 yildan keyin o'sib borgan. Bu tendensiya qurilishda tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi va investitsiya imkoniyatlarining ortib borayotganligi bilan bog'liq.

Shunday bo'lsada, O'zbekiston Respublikasi mintaqalari bo'yicha tadqiqot davrida qurilish tadbirkorligi salohiyati o'rtacha qiymati 0,586 ga teng bo'lib, Qoraqalpog'istondagi o'rtacha ko'rsatkichdan (0,559) yuqori bo'lgan. Bu esa, mintaqa tadbirkorlik salohiyatini oshirishda qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanishni talab etadi. Ayniqsa, mintaqada qurilish xomashyosining yetarli ekanligi, reyepublika boshqa hududlariga nisbatan tabiiy resurslarga boyligi qurilish tadbirkorligi uchun keng imkoniyat hisoblanadi. Shu bois, ushbu sohaga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar ko'lamini kengaytirish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qurilish sanoatiga ixtisoslashgan zonalarni barpo qilish va kengaytirish zarur.

Shuni alohida ta'kidlaymizki, mintaqada tarmoq va sohalar bo'yicha tadbirkorlik salohiyatining kengayishi ish bilan bandlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Bu esa, Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlikda band bo'lganlarni ish bilan bandlikdagi ulushini tahlil qilishni talab etadi. Shunday bo'lsada, dastlab O'zbekiston mintaqalaridagi o'rtacha ko'rsatkichlarga alohida to'xtalib o'tamiz. Jumladan, tadqiqot davri davomida mamlakatda ushbu ko'rsatkich tebranuvchi tendensiyaga ega bo'lgan. 2010 yildagi 0,694 birlikdan 2024 yilda 0,759 gacha o'sgan va o'rtacha 0,736 birlikni tashkil qilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida ushbu ko'rsatkichning o'rtacha qiymati biroz past bo'lib, 0,691 ga teng bo'lgan.

Shuningdek, yillar kesimida tadqiq qilganimizda yuqorida ta'kidlaganimizdek, notekis o'zgarib borgan. Jumladan, mintaqada tadbirkorlikning mehnat salohiyati 2010-2015 yillarda 0,584-0,646 oralig'ida bo'lib, asosiy e'tibor mahalliy loyihalarning kengayishi hisobiga yuz bergan. 2016-2019 yillarda esa ushbu ko'rsatkich 0,662-0,750 oralig'ida barqaror o'sishga ega bo'lgan. Bu davrga kelib mintaqada xususiy sektorni, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil siyosat yuritilgan hamda xorijiy kapital oqimi kengaygan. Shu bilan birga, 2020-2024 yillarda mehnat salohiyati 0,750-0,799 oralig'idagi yuqori qiymatlarga yetgan. Bu davrda tadbirkorlikning ish bilan bandlikdagi ulushi barqaror va yuqori darajada bo'lib, iqtisodiy faollik o'sgan.

O'zbekistonda tadbirkorlikning mintaqalar bo'yicha umumiy salohiyatini YAIMdagi, sanoatdagi, qurilishdagi va ish bilan bandlikdagi ulushi bo'yicha baholadik. Natijada, 2010-2024 yillar bo'yicha mamlakatdagi umumiy tadbirkorlik salohiyatining o'rtacha ko'rsatkichi 0,637 ga teng bo'lib, unga asosiy ta'sir qilgan manba tadbirkorlikning YAIM hamda mehnat salohiyati hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida tadbirkorlik salohiyati rivojlanish darajasi¹

Mintaqalar nomi	Umumiy salohiyat	YAIMdagi ulushi bo'yicha salohiyat	Sanoatdagi ulushi bo'yicha salohiyat	Qurilishdagi ulushi bo'yicha salohiyat	Ish bilan bandlikdagi ulushi bo'yicha salohiyat
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,544	0,548	0,379	0,559	0,691
Andijon viloyati	0,753	0,792	0,274	0,964	0,982
Buxoro viloyati	0,607	0,831	0,529	0,282	0,786
Jizzax viloyati	0,902	0,988	0,814	0,919	0,887
Qashqadaryo viloyati	0,526	0,624	0,266	0,377	0,838
Navoiy viloyati	0,078	0,000	0,000	0,240	0,073
Namangan viloyati	0,914	0,880	0,913	0,898	0,967
Samarqand viloyati	0,880	0,914	0,801	0,812	0,994
Surxondaryo viloyati	0,747	0,901	0,645	0,591	0,849
Sirdaryo viloyati	0,715	0,804	0,525	0,738	0,794
Toshkent viloyati	0,448	0,482	0,315	0,321	0,672
Farg'ona viloyati	0,710	0,701	0,576	0,698	0,865
Xorazm viloyati	0,744	0,876	0,472	0,725	0,905
Toshkent shahri	0,347	0,478	0,826	0,080	0,005
O'rtacha	0,637	0,701	0,524	0,586	0,736

Shunday bo'lsada, Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha tadbirkorlik salohiyati mamlakat mintaqalari o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan past bo'lib, tadqiqot davri davomida o'rtacha 0,544 ga teng bo'lgan. Shuningdek, unga asosiy ta'sir qiluvchi mezon tadbirkorlikning mehnat salohiyatidir. Demak, mintaqalarda tadbirkorlikning umumiy salohiyati mehnat omili hisobiga o'zgarimoqda. Bu esa, tadbirkorlik salohiyati rivojlanishida ekstensiv omillar ustuvor ekanligidan dalolat beradi. O'z navbatida, Qoraqalpog'istonda ish bilan bandlikda tadbirkorlikning ulushi 0,691 qiymatiga ega bo'lib, respublikada aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu holat tadbirkorlikning aholi bandligini saqlash va ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shish imkoniyati yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik salohiyati o'rtacha va barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Eng ustuvor yo'nalishlar esa ish bilan bandlik va qurilish sektori hisoblanadi. Sanoat sohasida tadbirkorlik faolligi nisbatan past bo'lib, bu sohada

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

investitsiyalarni jalb qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha choralarni ko'rish zarur.

Yuqoridagi tahlil va tadqiqot natijalariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi tadbirkorlik salohiyati rivojlanish darajasini mintaqalarga nisbatan holatini solishtirma tahlil qilganimizda, umumiy barqarorlik yaxshi reyting oralig'iga tegishli bo'lgan (2-jadval). Bunda, tadbirkorlikning sanoat salohiyatidan boshqa barcha mezonlari yaxshi reyting mezoniga muvofiq bo'lgan. Demak, hisob-kitob va tadqiqotlarimiz natijasini ko'rsatishicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyoti "yaxshi" va "qoniqarli" reyting bo'yicha rivojlanishga ega ekan. Mintaqada, tadbirkorlik salohiyatining umumiy iqtisodiy barqarorligini oshirish uchun sanoat sektorida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qurilish va aholi bandligi sohasidagi natijalarni kengaytirish zarur.

2-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik salohiyatining barqaror rivojlanishi bo'yicha reytingi²

Tasnif mezonlari	Umumiy barqarorlik	YAIMdagi ulushi	Sanoatdagi ulushi	Qurilishdagi ulushi	Ish bilan bandlikdagi ulushi
A'lo					
Yaxshi	○	○		●	●
Qoniqarli			○		
Qoniqarsiz					

Izoh: ● – reyting mezonida barqaror o'ringa egaligi; ○ – reyting mezonida nisbatan barqaror o'ringa egaligi; ○ – reyting mezonida nobarqaror o'ringa egaligi.

Yuqorida amalga oshirgan tahlillarimiz asosida mamlakat mintaqalarining umumiy tadbirkorlik salohiyati bilan sohaning YAIMdagi, sanoatdagi, qurilishdagi va ish bilan bandlikdagi ulushi bo'yicha mezonlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni tahlili qildik. Natijada, tadbirkorlik salohiyatining umumiy ko'rsatkichi bilan YAIMdagi ulush korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,952, sanoatdagi ulush korrelyatsiyasi 0,656, qurilishdagi ulush bilan korrelyatsiya 0,855, ish bilan bandlikdagi ulush bilan korrelyatsiya esa 0,875 ga teng bo'lgan (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida umumiy tadbirkorlik salohiyati rivojlanishi va uning mezonlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish natijalari³

Ko'rsatkich nomi	Umumiy barqarorlik	YAIMdagi ulushi	Sanoatdagi ulushi	Qurilishdagi ulushi	Ish bilan bandlikdagi ulushi
Umumiy barqarorlik	1				
YAIMdagi ulushi	0,951725221	1			
Sanoatdagi	0,655840663	0,66738510	1		

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

ulushi		6			
Qurilishdagi ulushi	0,854985967	0,69754328 2	0,33808417 7	1	
Ish bilan bandlikdagi ulushi	0,874767275	0,82248837 2	0,26039377 1	0,788660806	1

Demak, umumiy barqarorlik asosan ish bilan bandlik va qurilish sohalaridagi tadbirkorlik faolligiga bog'liq ekan. Tadbirkorlik salohiyatining YAIMdagi ulushi va ish bilan bandlik o'rtasida yuqori bog'liqlik mavjud. Bu esa, iqtisodiy o'sish va aholi bandligi o'rtasida sezilarli aloqa mavjudligini ifodalab, multikollinearlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Sanoat sektori boshqa sohalar bilan nisbatan zaif bog'liq. Shuningdek, qurilish sektori, xususan, aholi bandligi va umumiy barqarorlik bilan yaqin bog'liq bo'lib, mintaqaviy tadbirkorlik salohiyatini oshirishda eng ta'sirli sohalardan biri hisoblanadi.

Korrelyatsiya natijalariga muvofiq regression tahlilni amalga oshiramiz. Bunda, mintaqalarning umumiy tadbirkorlik salohiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi mezonni aniqlaymiz. Buning uchun yuqoridagi tahlil natijalariga muvofiq qurilish va mehnat salohiyatini tanlab oldik.

Dastlab, ekonometrik modelni qurilish salohiyati asosidagi ko'rinishini quramiz:

$$UTS = \beta_0 + \beta_1 \cdot KUTS + \varepsilon \quad (1)$$

Bunda: UTS – umumiy tadbirkorlik salohiyati; KUTS – qurilishdagi tadbirkorlik salohiyati; ε – xatolik.

Yuqoridagi modelga muvofiq o'tkazgan regression tahlil natijalari asosida quyidagi modelni hosil qildik:

$$UTS = -0,0696 + 0,5871 \cdot KUTS \quad (2)$$

Regressiya natijalariga ko'ra, model ishonchliligi statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi ($F=8,612$ va $P=0,0125$). Qurilish salohiyatining 1 foizga o'sishi umumiy tadbirkorlik salohiyatini 0,5871 foizga o'sishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, umumiy tadbirkorlik salohiyati bilan kuchli korrelyatsiyaga ega bo'lgan mehnat salohiyatini ham tahlil qilamiz. Buning uchun quyidagi modelni yozdik:

$$UTS = \beta_0 + \beta_1 \cdot ELB + \varepsilon \quad (3)$$

Bunda: UTS – umumiy tadbirkorlik salohiyati; ELB – tadbirkorlikning mehnat salohiyati.

Mazkur modelga muvofiq amalga oshirgan regressiya natijasida quyidagi modelni ishlab chiqdik:

$$UTS = -0,167 + 0,268 \cdot ELB \quad (4)$$

Modelning statistik jihatdan ahamiyatligi ijobiy bo'lib ($F=7,6636$ va $P=0,017$), tadbirkorlikning mehnat salohiyatini 1 foizga o'sishi natijasida umumiy tadbirkorlik salohiyati 0,268 foizga o'smoqda.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ish bilan bandlikdagi tadbirkorlik ulushi umumiy tadbirkorlik salohiyatini aniq ko'rsatuvchi statistik jihatdan ahamiyatli omildir. Shuningdek, Qoraqalpog'istonda tadbirkorlik salohiyati barqarorligini ta'minlashda ish bilan bandlikdan tashqari, qurilish tadbirkorligining o'sishi, sanoat salohiyatini

rivojlantirish va mahalliy investitsiyalarning rag'batlantirilishi ham muhim. Bu nafaqat mintaqaning iqtisodiy barqarorligini, balki umumiy tadbirkorlik salohiyatini ham oshirish imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Schumpeter, J.A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Cambridge, MA: Harvard University Press, pp. 66–94.
2. Cantillon, R. (1755). *Essai sur la Nature du Commerce en Général*. London: Macmillan, pp. 45–60.
3. Fischer, M.M., Nijkamp, P. (2009). *Entrepreneurship and Regional Development*. In: Handbook of Regional Growth and Development Theories. Oxford: Elsevier, pp. 182–198.
4. Fritsch, M., Wyrwich, M. (2019). *Entrepreneurship Culture and Regional Development* // Regional Studies Journal, Vol. 53(4), pp. 512–525.
5. Isenberg, D. (2010). *The Big Idea: How to Start an Entrepreneurial Revolution*. Harvard Business Review, Vol. 88(6), pp. 40–50.
6. Wei, Y. (2022). *Regional Government and Entrepreneurship*. Research Policy, Vol. 51(7), pp. 104–120.
7. Stough, R., et al. (2016). *Entrepreneurship and Regional Economic Development*. Cheltenham: Edward Elgar, pp. 210–235.
8. Абдурахмонов Қ.Х. (2020). *Иқтисодиётни модернизация қилиш ва тadbirkorlik*. -Тошкент: "Иқтисодиёт" нашриёти, 112–145-бетлар.
9. Рахимов А.Р. (2021). *Тadbirkorликни ривожлантиришнинг институционал асослари* // "Иқтисод ва молия", №3, 45–52-бетлар.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

